



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**VAZIRLAR MAHKAMASI HUZURIDAGI
O‘ZBEK TILINI RIVOJLANTIRISH JAMG‘ARMASI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT
O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI HUZURIDAGI DAVLAT
TILIDA ISH YURITISH ASOSLARINI O‘QITISH VA MALAKA OSHIRISH
MARKAZI**

“DAVLAT TILI TARAQQIYOTI: MUAMMO VA YECHIMLAR”

mavzusidagi V respublika an’anaviy ilmiy-amaliy anjumani

MATERIALLARI

**“BOOKMANY PRINT”
TOSHKENT – 2025**

UO‘K: 494.375

KBK: 81.633.1

D 26

Davlat tili taraqqiyoti: muammo va yechimlar [Matn]: to‘plam / Sh.Sirojiddinov.
– Toshkent: Bookmany print, 2025. – 450 b.

Mazkur to‘plam “Davlat tili taraqqiyoti: muammo va yechimlar” mavzusidagi V respublika an’anaviy ilmiy-amaliy anjumaniga tilshunos olimlar, vazirlik, idoralar, mahalliy ijro etuvchi organlarning davlat tili bo‘yicha maslahatchilari hamda tadqiqotchilar tomonidan yuborilgan materiallardan tashkil topgan. Undagi maqolalarda davlat tilining dolzarb muammolari, ularni hal qilish bo‘yicha takliflar, yechimlar berilgan. To‘plam tilshunoslar, professor-o‘qituvchilar, tadqiqotchilar, magistrlar va talabalar uchun mo‘ljallangan.

(Maqolalarning ilmiy saviyasiga mualliflarning o‘zlari mas’uldirlar).

Mas’ul muharrir:

Sh.Sirojiddinov, filologiya fanlari doktori, akademik

Tahrir hay’ati:

I.Azimov, filologiya fanlari doktori, professor

A.Eminov, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent

B.Jo‘rayeva, filologiya fanlari doktori, professor

M.Abdiyev, filologiya fanlari doktori, professor

F.Bobojonov, filologiya fanlari doktori, dotsent

M.Saparniyozova, filologiya fanlari doktori, dotsent

M.Hakimova, filologiya fanlari doktori, professor

M.Umirzoqova, filologiya fanlari doktori, dotsent

H.Yodgorov, filologiya fanlari nomzodi, dotsent

H.Suyunov, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent

N.Quldashev, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti huzuridagi Davlat tilida ish yuritish asoslarini o‘qitish va malaka oshirish markazi Ilmiy-metodik kengashida nashrga tavsiya etilgan.

ISBN 978-9910-06-774-7

© “Bookmany print” nashriyoti, 2025.

MILLIY, ULTRAMILLIY VA BAYNALMILAL TIL SIYOSATI

Yorqinjon ODILOV*

Annotatsiya

Zamonaviy tilshunoslik shaxsning tilga ta'siri beshakligini tan olib bo'ldi. Antropotsentrizmga asoslangan til ilmi ham davlatning til hayotiga maqsadli ta'sirini rad etmaydi. Vakolatli muassasalarning til hayotiga ongli aralashuvi hisoblangan til siyosati ham til antropotsentrikligining aniq ko'rsatkichidir. Antropotsentrik tilshunoslikning alohida tarmog'i bo'lgan ijtimoiy tilshunoslikda dunyo davlatlarining til siyosati bo'yicha ancha-muncha tajriba to'plangan va bu tajribalar davlatning milliy masalalardagi siyosatining ko'rinishi sifatida amaliyotga joriy qilingan. Davlatning ixtiyoridagi tillar bo'yicha pozitsiyasi hisoblanadigan milliy yoki baynalmilal yo'nalgan ham bo'ladi. Til siyosatining mazkur ko'rinishlari, albatta, ko'p tilli vaziyatlarda amal qiladi va muhim etnoijtimoiy masalalarga aloqador bo'ladi. U vakolatli muassasalarning mafkuraviy-huquqiy ta'sir choralari o'laroq har qanday holatda milliy til(lar)ning ijtimoiy vazifalarini, qo'llanish doiralarini kengaytiradi. Muvaffaqiyatli o'tkazilganda tilning yashash shakllarini yangi imkoniyatlarga sohib qiladi. Mazkur maqola zikr etilgan siyosatning ayrim muammolaridan bahs etadi.

Kalit so'zlar: til vaziyati, ko'ptillilik, til siyosati, milliy til siyosati, ultramilliy til siyosati, baynalmilal til siyosati, til huquqi, lisoniy kamsitish, ta'lim tili, OAV tili.

National, Ultranational and International Language Policy

Abstract

Modern linguistics has already acknowledged the undeniable influence of the individual on language. Linguistic science based on anthropocentrism does not deny the purposeful impact of the state on the life of language. Language policy, which is implemented as the conscious intervention of the state or authorized institutions in linguistic processes, serves as clear evidence of the anthropocentric nature of language. In sociolinguistics – a specific branch of anthropocentric linguistics – considerable experience has been accumulated regarding the language policies of different countries, and this experience confirms that such policies have been introduced into practice as an integral part of state policy on national issues. The state's stance toward the languages under its jurisdiction is distinguished by being either nationally oriented or internationally oriented. These forms of language policy operate in multilingual contexts and are closely related to significant ethno-social

* Filologiya fanlari doktori, professor. O'zbekiston Fanlar Akademiyasi O'zbek tili, adabiyoti va folklori instituti bo'lim mudiri, yorqinjonodilov@gmail.com

issues. Both national and international language policies, as ideological and legal measures of authorized institutions, inevitably expand the social functions of certain languages and provide new opportunities for their modes of existence. This article discusses aspects of the mentioned policies that have not been previously addressed.

Keywords: language situation, multilingualism, language policy, national language policy, supranational language policy, international language policy, language rights, linguistic discrimination, language of instruction, language of the mass media.

Til – ijtimoiy ta’sirchan hodisa, jamiyat esa til bilan tirik, ikkalasining ta’sirlashuvi muntazam, murakkab hamda o’ziga xos. Odamzod bir-birini tili va tanasiga qarab tanishni o’rgangan, ilk ibtidoiy jamiyatlarga uyusha boshlagandayoq tilning aloqa vositasi vazifasidan bo’lak xizmatlaridan foydalangan, til vositasida jamiyatga aylanish, jamiyat o’laroq yashash tartiblarini belgilagan. Til ham yaralgandayoq jamiyatlarning jiddiy ta’siri ostida turgan ba bunday ta’sirlarga tortilishi barobarida takomillasha borgan. Bugun tilning etnoijtimoiy, etnoramziy va yana boshqa vazifalari tabiatan ijtimoiy bo’lgan, odam va uning dunyosi bilan jips bog’langan.

Tilning paydo bo’lishi haqidagi eng sodda qarashlarda ham, *psixo-*, *etno-*, *sotsio-*, *neyro-*, *kognio-* tarkibli zamonaviy tadqiqotlarda ham til – odam – olam uchligi o’rtasidagi munosabatni aniqlash, tilni jamiyatga, jamiyatni tilga xizmat qildirishdek maqsadlar mujassamlangan. Jamiyat tilning yagona tarkib toptiruvchisi ekani anglangan vaqtdan boshlab olis Fransiyada ijtimoiy hayotdagi o’zgarishlarning tilga qanday ta’sir qilishi-yu tilda qanday voqelanishini o’rganish, tilning ijtimoiy jarayonlardagi ishtirokini aniqlashtirish va ijtimoiy jarayonlarning tilni takomillashtirishdagi xizmatining nechog’li izchilligini izlash payida bo’lib kelingan.

Ibtidosida ixtiyorsiz kechgan tilga ta’sirlar davlatchilikning takomillashishi bilan ongli aralashuvga aylangan va davlat o’z ixtiyoridagi tillar hayotiga maqsadli aralashishni, tillarni qo’llash tartiblarini o’rnatgan. “Bu so’z falon tovushlardan tuzilgan, falon ma’noni bildiradi, falon so’z bilan bog’lanadi” tarzidagi ilk ilmiy kuzatishlar tilshunoslikdek katta fanga g’oya bo’lgan bo’lsa, bir farmon bilan ish, ijod tilini joriylashdek tutumlar til siyosatidek qamrovli ilmga moya bo’lgan. Zamonaviy jamiyatlarning lisoniy harxillik sharoitida yashashi, lisoniy muhitlarning globallashuvning muqarrar ta’siriga tushayotganligi davlatlarni til siyosatini tolerantlashtirishga, til hayotini ijtimoiy tebranishlarsiz tuzatishga undamoqda. Asrimiz tillarining ayni mummolari til siyosatini tilshunoslikdan tashqarida ham dolzarblashtirmoqda.

Jamiyatning tilga ta'sirini til siyosatidek aniq sezdiradigan hodisa kam. Bunday siyosat tilning ashyoviy birliklari sathidan tortib fikr ifodalovchi birliklar sathida ham seziladi; tadbirkorning tovar yetkazish jarayonidan siyosiy yetakchining diplomatik munozarasida ham amal qiladi. Til siyosati lisoniy hayotning qaysi jabhasiga oidligi, qanday jamiyatga mo'ljallangani; bugun qanday etnoijtimoiy masalalarni qamrashi lozim-u ertaga yana boshqa o'tkir etnoijtimoiy muammolarga mafkuraviy-huquqiy yechim bo'lishi bilan farq qiladi.

L.Nikolskiy turli davlatlarning til siyosatlarini tahlil qilar ekan, mavjud lisoniy an'analarni saqlab qolish yoxud yangi lisoniy me'yorlarni joriylashga yo'naltirilgan til siyosatlarini ajratadi. Yoki mavjud tillarning rivoji uchun teng sharoit yaratilganligi yoki yaratilmaganligi, tor aholi qatlami yoki keng aholi qatlamining manfaatlarini ifodalashiga ko'ra, til siyosatining internatsional va milliy yo'nalgan turlarini farqlaydi. Uning tushuntirishicha, "Internatsional til siyosati ko'p millatli mamlakatda yo barcha tillarning huquqiy tengligini tan oladi, yo tilga kirib kelayotgan chet so'zlarga murosali bo'ladi. Masalan, Vetnam Respublikasining til siyosati hududidagi barcha tillarning tengligini tan oladi, terminologiyasini xalqaro terminlar va xitoy tili leksikasi yordamida rivojlantiradi. Milliy yo'nalgan til siyosatini ko'p millatli davlatda bir etnik guruh tiliga imtiyozli mavqe berishda, bir millatli davlatda esa chet til unsurlaridan foydalanishga qarshi qaratiladi, masalan, o'zlashma so'zlardan mahalliy so'zlarni afzal ko'rilishida namoyon bo'ladi.

L.Nikolskiyning yuqoridagi qarashlari ma'lum ma'noda to'g'ri, biroq to'la qo'shilib bo'lmaydi. Til siyosatini boshqa til siyosati ko'rinishlaridan milliy yoki baynalmilal yo'nalgan til siyosati tarzida farqlash mumkin, ammo bunda milliy yo'nalgan til siyosatini ultramilliy yo'nalgan til siyosatidan farqlash lozim, chunki har qanday til siyosati milliy bo'ladi, ya'ni aniq milliy-madaniy sharoitda shakllanadi va amalga oshadi. Yana har davlatning til siyosati unikal ham bo'ladi va har lisoniy vaziyat til hayotiga aralashishda o'ziga xos yondashuvni talab qiladi. Masalan, mustamlakachilikdan chiqqan davlatning til siyosati darrov baynalmilal bo'lishi qiyin, xalqning yillar bo'yi toptalgan milliy o'zligi bunga izn bermaydi. Yosh respublika oldida mustamlaka asoratlaridan qutulish va milliy davlatchiligini yaratish vazifasi turadi. Bunday sharoitda davlat, birinchi navbatda, milliy o'zligini tiklashga kirishadi. Lisoniy o'zlikka qaytish, milliy tilning obro'sini ko'tarish, yagona rasmiy til ostida xalqlarni birlashtirish harakati boshlanadi. Tabiiyki, hech qaysi til davlat rag'batisiz – uning ijtimoiy-siyosiy qo'llovisiz chinakamiga umumdavlat tili bo'lolmaydi. Buning uchun unga mamlakat miqyosida qo'llanishda ustuvorlik berilishi, ta'lim va OAVda keng qo'llanishi ijtimoiy vaziyat talabi bilan bo'ladi. Mazkur sharoitda mamlakat aholisining asosiy qismi so'zlashadigan tilga davlat tili yoki rasmiy til maqomi beriladi. Shu va yana boshqa sabablar mustaqil

respublikaning milliy til siyosatini haqiqiy vaziyatni hisobga olmay fikr yuritishga, biryoqlama baholashga izn bermaydi.

Til muammolari rivojlanayotgan davlatlarda aniq seziladi, ko'p kuzatiladi, chunki bu vaqtda yosh respublika iqtisodiy-siyosiy taraqqiyotni birinchi o'ringa qo'yadi va xorijiy davlatlar bilan hamkorlikni jadal rivojlantiradi. Natijada, yangi-yangi iqtisodiy-siyosiy tushunchalar bilan ularning nomlari tilda ko'payadi. Davlat asosiy e'tibori-yu kuchini iqtisodiy-siyosiy hayotni yaxshilashga qaratgani holda xorijiy so'z va atamalarni milliy muqobillariga almashtirish imkonini topmaydi. Til islohi noma'lum muddatga kechiktirilib, xorijiy so'z va atamalarni aynan qabul qilishga o'tiladi, til sofliqi haqida sukut saqlanadi. Qisqa muddatda tilning lug'at tarkibi xorijiy so'z va atamalar bilan shishadi. Albatta, xorijiy tillardan so'z va atamalarni olish tilni boyitadi, biroq tilning talaffuz me'yorlariga moslashtirmay qabul qilaverish yaxshi holat emas.

Davlat iqtisodiy-siyosiy mustahkamlangach, boshqa ijtimoiy-madaniy masalalar qatorida til ham e'tiborga tushadi, ammo bu paytga kelib, milliy til lug'at tarkibini xorijiy atamalar yetarlicha egallaydi, ularning katta qismi kundalik rasmiy-norasmiy nutqda qo'llanishga o'tib bo'ladi. Tilga kirgan xorijiy so'zlarni ilmiy asoslangan milliy muqobillariga almashtirish xayrli va xayrli ishning esa erta-kechi bo'lmasa ham, natija chiqishi qiyinlashadi. Til egalarining katta qismida xorijiy so'z va atamalarga qarshi lisoniy immunitetning zararlangani ayni jarayonni murakkablashtiradigan muammoga aylanadi.

Globallashuv sharoitida milliy tilga xorijiy so'z va atamalarning kirib kelishini nazorat qilish, terminologiyani ichki imkoniyatlar asosida boyitish davlatning milliy yo'nalgan til siyosati o'tkazayotganini ko'rsatadi. Negaki til siyosatining o'ta baynalmilallashib ketishi shu tillarga xorijiy so'z va atamalarning hisobsiz qabul qilinishiga sabab bo'ladi. Global tillarning salbiy ta'siri termin o'zlashishi bilan to'xtasa-ku, mayli, ammo ular milliy talaffuz tarzini ma'lum darajada o'zgartiradi*. Buni o'zbek tilining uzoq va yaqin tarixida singarmonizmning buzilishi, alifboda tilga begona tovush ifodalarining kiritilishi oqibatlarida ko'rish mumkin. Ya'ni o'zbek-kirill alifbosida o'zbek tili nuqtayi nazaridan ikki tovush hisoblanadigan yoolashgan unlilarning **е, ё, ю, я** singari harfiy ifodalar yoki faqat ruscha-baynalmilal so'zlarda uchraydigan **и** harfi o'zbek tilining yozuv va talaffuz tarzlariga ta'sir qilgan.

Milliy talaffuz va yozuv me'yorlariga bo'ysunmaslik hozirgi kunda ayrim ismlarni arabiy talaffuz qilishda, xususan, qisqa **“i”** tovushini **“iy”** tarzida ifodalash va qayd qilishda ko'zga tashlanadi: *Ali* emas, *Aliy*, *juma* emas, *jum'a* deb aytish

* Chet tillarning kuchli ta'siri sharoitida milliy talaffuz tarzining o'zgarishi bo'yicha Qozog'istonda Axmad Baytursinli nomidagi Til bilim institutida maxsus tadqiqot bajarilgan.

kengayadi. Bu kabi holatlar til siyosatida hamisha hushyorlikni, o'zbek tili an'analarni e'tiborga olib ish ko'rishni taqozo etadiki, milliy til siyosati faqat mafkuraviy-huquqiy choralar ko'rilishi emas, millat o'zligini himoyalash dastagi bo'ladi.

Agar lisoniy harxillik sharoiti amal qiladigan mamlakatning milliy siyosatida xalqlarning etnomadaniy o'ziga xosligi hisobga olinmay, davlat darajasida boshqa tillar (xoh etnik ozchilik tili, xoh etnik ko'pchilik tili bo'lsin)ning ijtimoiy hayotda qo'llanishini cheklash, iqtisodiy yoki huquqiy ta'sir ko'rsatish orqali etnik til tiyib turilsa, milliy til siyosati ultramilliy ko'rinish oladi. Ultramilliy til siyosati bir etnomadaniyatni majburiy yoyishni maqsad qiladi, lisoniy tarafkashlikdan boshlangan bunday xatti-harakatlar kishilarning til huquqlarini butkul cheklaydi, lisoniy kamsitish davlat tashkilotlarida ijtimoiy munosabatlarga ko'chadi.

Odatda, ultramilliy til siyosati davlatning tilni rag'batlantirishini bir etnos manfaatlariga yo'naltirishdan boshlanadi. Bir til qo'llanishda imtiyozlangani holda boshqa tillar ijtimoiy taqiqqa uchraydi yoki qonunan cheklanadi, mahalliy tillar uchun ijtimoiy maydon qolmaydi, bunday tillar hayoti o'z holiga tashlab qo'yiladi. Tarixan sobiq ittifoqda XX asrning 20-yillarida "mahalliyalashtirish siyosati"* davrida milliy respubliklar tillari qo'llab-quvvatlab turilgan, ammo 30-yillarning o'rtalaridan ruslashtirish siyosati kuchaygan, barcha jabhada rus tilini ustuvorlashtirish boshlangan. O'z davri uchun ultramilliy bo'lgan til siyosati keyinchalik ta'lim tizimi, ommaviy axborot vositalari, sud ishi va boshqa sohalarda rus tilini qo'llashni majburiylashtirishdek harakatlarda davom etgan.

Ultramilliy til siyosati ko'p tilli mamlakatlarning ta'lim tizimida ta'lim tilini mutlaqlashtirishda ko'rinadi. Odatda, ijtimoiy-siyosiy ustun millat tili maktablarda ham ona tili, ham ta'lim berishning yagona tiliga aylantiriladi. Mahalliy tillarda ta'lim berish, ularni ta'lim predmeti bo'lishi taqiqlanadi, o'quv adabiyotlari chop qilinmaydi. Bunday siyosat ta'lim to'g'risidagi qonun hujjatlarida, ba'zan konstitutsiya darajasida qat'iylashtiriladi, qisqasi, davlatning milliy masalalardagi pozitsiyasi torayadi. Ijtimoiy tilshunoslik lisoniy harxillikni tugatadigan tizimli salbiy ta'sir deb baholaydigan til siyosatini xalqaro huquq, demokratik tartiblar buni inson huquqlarining buzilishi, to'g'ridan to'g'ri milliy o'zlikka daxl qilish hisoblaydi.

Hozirgi kunda ham qator davlatlarda ta'lim tilini mutlaqlashtirish amaliyoti mavjud. Masalan, Fransiya ta'limining rasmiy tili fransuz tili hisoblanadi va ta'lim muassasalarida faqat fransuz tilida o'qitish talab etiladi. Bu "Fransiya ta'lim

* Milliy respublikalar va viloyatlarda mahalliy aholini davlat apparati va madaniy hayotga jalb qilish siyosati edi. Siyosatning asosiy maqsadi mahalliy aholining vakillarini rahbarlik lavozimlariga tayinlash, davlat idoralarida milliy tillarni joriy etish va milliy madaniyatlarni rivojlantirishdan iborat bo'lgan. Ushbu siyosat 1920-yillarning boshlarida boshlanib, 1930-yillarning o'rtalariga qadar davom etgan.

qonuni”da* belgilangan. Ayrim hududlarda mahalliy til faqat ikkinchi til sifatida o‘qitilishi mumkin, ona tili sifatida o‘quv predmeti bo‘la olmaydi. Xitoyda ta‘lim asosan mandarin tilida beriladi va bu til davlat ta‘limining asosiy tili hisoblanadi. “Xitoy ta‘lim qonuni”* mandarin tilida o‘qitishni talab qiladi va shu tildagi ta‘lim huquqiy tasdiqlaydi. Turkiyada ham davlat ta‘limi asosan turk tilida olib boriladi va bu Respublika konstitutsiyasi, “Turkiya ta‘lim qonuni”da* qayd qilingan. Har qanday ta‘lim muassasasi va davlat dasturlari, odatda, turk tilida taqdim etiladi. Olimlar mazkur davlatlarda maktab ta‘limi tili mutlaqlashtirilgan deb hisoblaydilar, chunki o‘qitish faqat rasmiy tilda amalga oshiriladi, boshqa tillar faqat qo‘shimcha til sifatida o‘rgatiladi.

Milliy til siyosatining ultramilliylashuvi ko‘pincha bilvosita amalga oshiriladi. Masalan, 2017-yil 20-iyulda Duma Rossiyada “faqat rus tilini majburiy ta‘lim tili qilish, boshqa tillarda haftasiga ikki soatgacha ixtiyoriy kurs” tartibini tasdiqladi. 2017–2018-yillarda Rossiyada qabul qilingan “ona tillarini o‘qitish tartibini o‘zgartirishga oid qonunchilik islohoti” ko‘plab milliy respublikalarning madaniy-lisoniy huquqlariga daxl qilgan. Mazkur o‘zgarishgacha Tatariston, Boshqirdiston, Chuvashiya kabi respublikalarda tatar, boshqird, chuvash va boshqa tillar rus tili bilan birga majburiy fan sifatida o‘qitilgan. 2018-yildan ota-onalar farzandlarining rus tilidan boshqa tillarni o‘rganishini tanlashi yoki rad etishi mumkin bo‘ldi, aksar ota-onalar farzandlarining “keraksiz til”ni o‘rganmasligini istab, milliy til ta‘limidan voz kechdi. Natijada, mahalliy tillar ixtiyoriy o‘rganiladigan bo‘ldi, bu tillarga ajratilgan soatlar qisqardi. Milliy tillardagi majburiy ta‘lim “millatchilik va separatizmga” yetaklovchi omil deb baholangani holda rus tili umumrossiyaviy birlik tili deb hisoblandi. Bunga qarshi 2017 – 2018-yillarda Qozon, Ufa, Cheboksari, Yoshkar-Olada norozilik namoyishlari bo‘ldi, prezidentga murojaatlar yo‘llandi. Tatar va boshqird ziyolilari bu qarorni “lisoniy assimilyatsiya”, “madaniy genotsid”ga tenglashtirdi. Xalqaro ekspertlar tomonidan lisoniy harxillik xavf ostida qolayotgani aytilganiga qaramay, maktablarda rus tilidan tashqari barcha milliy tillar majburiy emas, balki ota-onalar yozma murojaat qilsa ixtiyoriy o‘qitiladigan o‘quv predmetiga aylandi. Bunday tartibni joriy qilish federal markazning ta‘limda rus tilini ustuvorlashtirish siyosati hisoblash mumkin.

Milliy til siyosati ommaviy axborot vositalariga ham ta‘sirini o‘tkazadi. Masalan, bitta tilda ommaviy axborot tarqatiladi, boshqa tillarda gazeta-jurnallar chop qilinishi, teleradiodasturlar efirga uzatilishini cheklanadi. OAVning ultramilliylashuvi ham milliy siyosatning tabiati bilan bog‘liq, hukumat o‘zi xohlagan

* Code de l’éducation. https://www.legifrance.gouv.fr/codes/texte_lc/LEGITEXT000006071191/

* Law on Education of the People’s Republic of China) (<http://www.moe.gov.cn/>

* Milli Egitim Temel Kanunu. <https://www.mevzuat.gov.tr/MevzuatMetin/1.5.1739.pdf>

axborotni o'zi istagan tarzda tarqatishni maqsad qilganda bir tilda axborot tarqatishni ommalashtiradi.

OAVda milliy til siyosati qonunan belgilanishi ham mumkin. Bunda ommaviy axborot vositalariga faqat davlat tilini ishlatishga undaydigan qonunlar chiqariladi. Masalan, Latviyada davlat moliyalashtiradigan telekanallarda faqat latish tilidagi efirlar talab qilinadi, boshqa tillar ikkinchi darajali kanallarda qo'llanadi. OAV ruxsatnoma olayotganda latish tilida ish yuritish shartlari va talablari tushuntiriladi. "Rasmiy til haqida" (1999), "Elektron ommaviy axborot vositalari to'g'risida" (2010)gi qonunlarga ko'ra, teleradiokanallar ochish uchun ariza topshiruvchilar kunlik ko'rsatuv va eshittirishlarning asosiy qismi latish tilida bo'lishini kafolatlashi lozim. Agar dasturlar boshqa tilda bo'lsa, latish tilida subtitrl berilishi lozim. Haftalik eshittirish va ko'rsatuvlarning 60 foizi latish tilida efirga uzatishlari shart. Latviya davlat tili markazi (Valsts valodas centrs) bu jarayonni o'rganib boradi, qonun talablari bajarilmaganda OAVga hayfsan, jarima va litsenziyani bekor qilish chorasi qo'llanadi. Mulohaza o'rnida Qozog'istonda davlat ommaviy axborot vositalarining 70 foiz axboroti qozoq tilida bo'lishi kerakligini ilova qilamiz.

Latviyaning til siyosatini Yevropa Kengashi, YXHT, Inson huquqlarini himoya qilish tashkilotlari ma'qullamaydi. J. Xyuz va boshqalar ham bu siyosatni rus tilli mahalliy aholining til huquqlarini buzish, til assimilyatsiyasi orqali etnik kamsitish amalga oshirilmoqda, deb hisoblaydi (Hughes, 2005, 739). Rossiya esa bundan geosiyosiy bosim sifatida foydalanadi.

Ko'p millatli Rossiyaning o'zida rus tili ommaviy axborot vositalarida ustunlik qiladi. Ma'lumotlarga ko'ra, 2021-yilda Rossiyada rus tilida 4956 nomdagi gazeta 4 252 875 100 nusxada chop etilgan. Bu mamlakatda chop etilgan barcha gazetalarining 92,3 foizi, ularning umumiy yillik nusxasi 98,5 foizini tashkil etadi. Rus tilidan boshqa tillarda 507 nomdagi gazeta 61 680 500 nusxada chop qilingan, milliy respublikalarning davlat tillaridagi gazetalar barcha gazetalarining 7 foizini, yillik tirajining esa 1,43 foizini tashkil etadi (Горячева, 2022, 51). Etnik ozchiliklarning o'z tilida ommaviy axborot olomasligi ularning jamiyatdan begonalashuviga, madaniyat va ta'lim imkoniyatlarini kamayishiga sabab bo'ladi. OAV tilini mutlaqlashtirish kichik tillarning chetga chiqib qolishiga olib kelishi mumkin.

OAVda milliy yo'nalgan til siyosati yuritilishi davlat tilini milliy birlik ramzi sifatida faol targ'ib qilishda namoyon bo'ladi. Masalan, O'zbekistonda davlat ommaviy axborot vositalari o'zbek tiliga alohida e'tibor qaratadi, tahririyatlar o'zbek tilida ko'rsatuv va eshittirish tayyorlash orqali davlat tilini tarqatadi, uning ustuvorligini ta'minlaydi. Shu bilan birga, o'zbek tilidan boshqa tillar (masalan, qoraqalpoq, tojik, qozoq, qirg'iz, rus kabi tillar)da ham ko'rsatuv va eshittirishlar yetarlicha efirga uzatiladi, gazetalar chop qilinadi. O'zbekiston OAVdagi milliy til

siyosati ularni lotinlashtirish jarayonida ham kuzatiladi. Bundan maqsad davlat tilining obro'sini oshirish va uni professional va ijtimoiy sohalarda qo'llashni kengaytirishdir. Bu holatni milliy til siyosati hisoblash o'rinli.

Milliy til siyosatining tabiati ijtimoiy munosabatlarda aniqlashadi. Jamoat joylarida, vakolatli tashkilotlarga murojaat qilishda murojaat tilini mutlaqlashtirish xalqaro huquqda etnik ozchilik tillarining cheklanishi sifatida baholanadi, etnik ozchilik orasida norozilik keltirib chiqaradi. Shuning uchun ham O'zbekistonda fuqarolarning teng huquqliligi hisobga olinib, davlat tashkilotlariga fuqarolarning o'ziga qulay bo'lgan tilda murojaat qilishi mumkinligi belgilangan.

Dunyo tajribasida ko'ptillilikni qo'llab-quvvatlash bo'yicha Kanada, Shveytsariya tajribasi tilga olinadi. Masalan, Kanada ta'lim tizimida moslashuvchanlikka ruxsat berilgan. Bu davlat til siyosatida majburiyatdan ko'ra rag'batlantirish afzal ko'riladi, ya'ni boshqa millat vakillarining davlat tilini o'rganishi rag'batlantiriladi. Etnik ozchilik va ko'pchilikning til huquqlarida muvozanatni saqlash orqali ijtimoiy-siyosiy birdamlik ta'minlanadi. Kanadada etnik ozchilik tillarini qo'llab-quvvatlovchi turli dasturlar mavjud. "Rasmiy tillar to'g'risida"gi qonun (1969, 2005) buzilganda rasmiy tillar bo'yicha komissar tomonidan ogohlantirish orqali hal etiladi, juda kam hollarda jarima qo'llanadi. Kanada milliy til siyosatini ingliz va fransuz tilli jamiyat ma'qullasa ham, boshqa jamoalarda noroziliklar chiqib turadi.

Xullas, milliy va baynalmilal yo'nalgan til siyosati ko'p millatli mamlakatlarda o'tkaziladi. Lisoniy harxillik sof lingvistik jihatdan dunyoni har xil anglash sharoiti deb tushunilsa, sotsiolingvistik jihatdan til hayotiga maqsadli aralashish manbayi deb qaraladi. Til siyosatining baynalmilalligi bir qarashda til siyosati o'tkazishning eng optimaldek ko'rinadi, bunday til siyosati yuritish faqat foyda keltiradigandek tuyuladi, biroq ko'ptillilik vaziyati til siyosatining faqat milliy yo'nalib qolishi yoki ultramilliylik ketishidan zarar ko'radi. Masalan, AQSh, Buyuk Britaniya, Avstraliya davlatlari o'z til siyosatini baynalmilallashtirishi rasmit til o'laroq amal qiladigan ingliz tiliga jiddiy ta'sir ko'rsatmaydi, nufuzi va nufusini tushirmaydi. Ammo yosh respublikalar til siyosatining milliy mohiyat kasb etmasligi, aksincha, baynalmilallashtirishi ayni milliy davlatchiligining oyoqqa turishiga salbiy ta'sir qiladi. Albatta, ko'ptillilikning tabiatidan kelib chiqib, titul millat tilidan boshqa tillarning qo'llanishi uchun sharoit yaratilishi, milliy til siyosati ultramilliy til siyosatiga aylanib ketmasligi zarur. O'zbekistonning milliy til siyosatida oltin o'rtaliq ushlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

Николский Л.Б. (1976). *Синхронная социолингвистика*. Наука.

Горячева М.А. (2022). *Динамика выпуска периодики на русском и республиканских государственных языках народов рф (1970-2021)* // Социолингвистика.

Hughes J. (2005). *'Exit' in deeply divided societies: regimes of discrimination in Estonia and Latvia and the potential for Russophone migration* // Journal of Common Market Studies.

Cianetti L. (2014). *Granting Local Voting Rights to Non-Citizens in Estonia and Latvia: The Conundrum of Minority Representation in Two Divided Democracies* // Journal on Ethnopolitics and Minority Issues in Europe.

Electronic Mass Media Law (*"Elektron ommaviy axborot vositalari to'g'risida"*gi Qonun). <https://wipo.lexres.wipo.int/edocs/lexdocs/laws/-en/lv/lv075en.-html>.

Official Language Law (*"Rasmiy til haqida"*gi Qonun). <https://valoda.lv/en/wp-content/uploads/Official%20Language%20Law.pdf>

https://www.legifrance.gouv.fr/codes/texte_lcLEGITEXT000006071

<http://www.moe.gov.cn>

<https://www.mevzuat.gov.tr/MevzuatMetin/1.5.1739.pdf>.